



O'ZINI-O'ZI BAND QILISH BO'YICHA SOLIQ TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Javmanova Sevara Hamid qizi

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida aholini o'zini-o'zi band qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zini-o'zi band qilishni ro'yxatga olish, ular shug'ullanishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni belgilash, ular to'lashi lozim bo'lgan soliqlarni belgilash, faoliyatlarni monitoring qilish va tartibga solish bo'yicha bajarilayotgan ishlar tahlil qilingan hamda muallif tomonidan qator takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zini-o'zi band qilish, soliq, QR-kod, BHM, ish, xizmat, jismoniy shaxs.*

Аннотация. В данной статье проанализированы реформы, осуществляемые в Республике Узбекистан в сфере самозанятости населения, вопросы регистрации самозанятых лиц, определения направлений деятельности которыми они могут заниматься, установления налогов подлежащих уплате, а также меры по мониторингу и регулированию их деятельности. Автором разработан ряд предложений по совершенствованию данной сферы.

Ключевые слова: самозанятость, налог, QR-код, БРВ (базовая расчётная величина), работа, услуга, физическое лицо.

Abstract. This article analyzes the reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan in the field of self-employment of the population, including the registration of self-employed individuals, the determination of the types of activities they are allowed to engage in, the establishment of applicable taxes, as well as the monitoring and regulation of their activities. The author also develops a number of proposals to improve this sphere.

Keywords: self-employment, tax, QR code, BRV (base calculation amount), work, service, individual.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi barcha rezidentlari Soliq mobil ilovasida o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishlari mumkin. O'zini o'zi band qilish uchun ro'yxatdan o'tish bepul va masofadan amalga oshiriladi, shuningdek, ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi QR-kodli ma'lumotnoma ilova orqali onlayn shakllanadi. Mehnat staji hisoblanishi uchun ixtiyoriy ravishda har yilning

belgilangan sanasi ya'ni 31-dekabrga qadar yiliga kamida BHM ning 1 barobari miqdorida (412 000 so'm) ijtimoiy soliq to'lashi mumkin.

Yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan o'zini-o'zi band qilgan shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni 1% miqdorida to'laydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PQ-247 son qaroriga ko'ra, 2026-yil 1-yanvardan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarda raqamli platformalarda generatsiya qilingan elektron to'lovlarni qabul qiluvchi maxsus QR-kod mavjud bo'lishi shartligi belgilab qo'yildi. Shu munosabat bilan quyidagi belgilandi:

- Majburiy talab sifatida QR-kodning mavjudligi;
- Paynet Xolis platformasidan foydalanishning ixtiyoriy xarakterga ega ekanligi
- Tadbirkorlar soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan, maxsus soliq rejimlari foydalanuvchilari va Texnopark rezidentlari bo'lmagan boshqa to'lov tashkilotlari yoki banklar tomonidan yaratilgan QR-kodlardan foydalanishga haqli.

2026-yil 5-yanvar holatiga Soliq mobil ilovasida 15 mlnga yaqin foydalanuvchi ro'yxatdan o'tdi. Faol va doimiy foydalanuvchilar soni 14,1 mlndan oshdi. Yuklab olishlar bo'yicha: Play Market – 3-o'rin; App Store – 4-o'rin. Dekabr oyida ilova xizmatlaridan 107,5 mln marta foydalanilgan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50 son qaroriga muvofiq o'zini-o'zi band qilgan fuqarolar 70 dan ortiq faoliyat turi bilan shug'ullanish mumkin. Quyida ushbu 70 dan ortiq yo'nalishlarni ko'rishingiz mumkin:



1. Bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo'yicha jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar.
2. Oilaviy bolalar uyini tashkil etish va faoliyatini yuritish.
3. Bemorlar hamda doimiy ravishda o'zgalar parvarishiga muhtoj keksa kishilarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo'yicha jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar.
4. Uy xo'jaligini yuritish va uy ishlarini bajarish, shu jumladan, turar joylarni tozalash, ovqat pishirish bo'yicha uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish.
5. Jismoniy shaxslarning santexnika uskunalari mayda ta'mirlash va o'rnatish.
6. Jismoniy shaxslarga kvartira ichida (shaxsiy qurilish ishlarida — uy ichida) elektr montaj xizmatlari ko'rsatish (elektr xavfsizligi bo'yicha ruxsati bo'lganda).
7. Dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning tomorqa yer uchastkalarida yer chopish va rekultivatsiya ishlari.
8. Fermer xo'jaliklari egalari, pilla yetishtirish va ipak qurti urug'chiligi tashkilotlari buyurtmasi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlari (qishloq xo'jaligi o'simliklari, ipak qurtini va hayvonlarni parvarish qilish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini yig'ish, tut ko'chatlarini ekish va boshqa qishloq xo'jaligi ishlari).
9. Fuqarolarning dala-hovli va tomorqa uchastkalari landshaftini barpo etish ishlari.
10. Qishloq xo'jaligi o'simliklarini ekish va parvarish qilishda, qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini yig'ib olishda dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalari egalari yordam berish.
11. Chorva mollarini o'tlatish, ularni parvarish qilish, shu jumladan, urug'lantirish, qo'zilatish, qirqish va dag'al xashak jamg'arish ishlari.
12. Jismoniy shaxslarga kompyuterlarni ta'mirlash va sozlash xizmatlarini ko'rsatish, litsenziyalangan dasturiy ta'minot o'rnatish ishlari.
13. Buyurtmachining uyida bajariladigan maishiy texnikani o'rnatish va ta'mirlash.
14. Jismoniy shaxslarning avtomobillarini yuvish, avtomobillar kuzovlarini silliqdash.
15. Mexanizatsiya vositalarini qo'llamay, uyda bajariladigan yuk ortish-yuk tushirish ishlari.
16. Xalq tabobati (litsenziyasi bo'lganda).
17. Xususiy shaxslarga bosh xizmatkor va konsyerj xizmatlarini ko'rsatish.
18. Buyurtma asosida tovarlarni yetkazib berish (yuk tashish bundan mustasno).
19. Bozorlar va savdo komplekslarida mayda yuklarni aravalarda tashish.
20. Ilgari foydalanilgan tovarlarni sotib olish va sotish.
21. Velosipedlarni ta'mirlash.
22. Rassomlik.



23. Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash.

24. Kalitlar tayyorlash.

25. O'lchov vositalari tayyorlash va ijaraga berish.

26. Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash.

27. Musiqa asboblarni ta'mirlash va sozlash.

28. Milliy non va patirlarni tayyorlash va sotish.

29. Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar).

30. Namoyishlarda kiyimlar modelini namoyish qilish, rasmlı jurnallarda, reklama filmlari va video kliplarda suratga tushish.

31. Multimedia, dizayn va san'at materiallarini yaratish va ishlov berish (veb-dizayner, grafika dizayneri, kompyuter o'yinlari dizayneri, interyer dizayneri, landshaft dizayneri, liboslar dizayneri, retusher, fotokollajchi, vektor grafikasi muharriri, arxitektor, vizuallashtiruvchi dizayner, ma'lumot dizayneri, interfeys dizayneri, texnik dizayner, moushn-dizayner, banner yasovchi, nashriyot dizayneri, flesher, 3D-dizayner, videomuharrir, videooperator, bastakor, ovoz rejissyori, aranjirovkachi, suxandon, fotomuharrir va boshqalar).

32. Dasturiy ta'minot, axborot tizimlari, mobil ilovalar va veb-saytlarni ishlab chiqish va texnik qo'llab-quvvatlash (dasturchi, dasturiy ta'minotni sinovchi mutaxassis, veb-sahifalarni sahifalovchi, veb-tahlilchi, veb-saytlarni optimizatsiyalash bo'yicha mutaxassis).

33. Elektron savdo maydonchasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) chakana sotish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish.

34. Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat (PR-menedjer, internet-marketolog, ijtimoiy tarmoqlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ilgari surish va reklama qilish (SMM), ijtimoiy tarmoq sahifalari administratori, akkaunt-menejer, marketolog, link-menejer, targetolog, kontekst-reklama bo'yicha mutaxassis, direktolog, media rejalashtiruvchi, SMO mutaxassisi).

35. Kadrlar tanlash sohasidagi faoliyat (internet-loyihalar bilan ishlovchi menejer, frilanserlar guruhi rahbari, NR-menejer, rekruter, shaxsiy assistent).

36. Onlayn konsultatsiya berish (onlayn-konsultant, onlayn-trener, moliyaviy maslahatchi, vebinar olib boruvchi).

37. Nomoddiy madaniy meros obyektlarini (dorboz, askiya va lapar) asrash va ulardan foydalanish (madaniyat markazlari tarkibida faoliyat yuritayotgan shaxslar bundan mustasno).

38. Uy sharoitida xonaki tovuqlarni yetishtirish va ko'paytirish.

39. Hamshiralik ishi.

40. Uy hayvonlari (qoramol, qo'y, echki, ot va boshqalar) bozorlarida vositachilik xizmati.

41. Avtomobil bozorlarida vositachilik xizmati.

42. Uyda sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash va sotish xizmati.



43. Gips va ganchdan buyumlar yasash (uy jihozlari, ertak qahramonlari haykallarini yasash).
44. Tosh va tosh mahsulotlaridan yodgorlik, suvenir va dekorativ buyumlar tayyorlash.
45. Yog'och mahsulotlaridan savat, non mahsulotlari uchun maxsus idish va boshqa buyumlarni to'qish.
46. Uy sharoitida pilla yetishtirish, shaxsiy tomorqa yer uchastkasida tut mevasi, niholi va ko'chatini yetishtirish, uyda ipak mato, ipak gilam to'qish va sotish.
47. Kulolchilik.
48. Kibersport faoliyati.
49. "O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining stipendiyasi" tayinlangan sportchilar faoliyati.
50. Teri xomashyosini yig'ish va tayyorlash.
51. Junni yig'ish va tayyorlash.
52. Qayta ishlangan jundan kiyimlar va boshqa buyumlar to'qish.
53. Uy sharoitida loydan tandir tayyorlash.
54. Atlas va adras to'qish.
55. Mayda munchoq (biser) tikish.
56. Do'ppido'zlik mahsulotlarini uy sharoitida tayyorlash.
57. Temirchilik mahsulotlarini uy sharoitida tayyorlash.
58. Asalarichilik, shuningdek, asalari uyasi va ramkalarini yasash.
59. Quroqchilik usulida ko'ylak, ko'rpa va yopinchiqlar tikish.
60. Qo'ziqorinlarni terish, uy sharoitlarida yetishtirish va sotish.
61. Pichoq tayyorlash, charxlash va sotish.
62. Qog'ozdan qutilar, banderollar tayyorlash.
63. Uy sharoitida issiqxona mahsulotlarini yetishtirish.
64. Tayyor mahsulotga etiketka biriktirish.
65. Uy sharoitida bolalar o'yinchog'i ishlab chiqarish.
66. Uy sharoitida supurgi yetishtirish va tayyorlash.
67. Yassi oyoqli bolalar oyoq kiyimlarini tayyorlash.
68. Milliy taqinchoqlar yasash.
69. Kandakorlik, miskarlik buyumlarini uy sharoitida tayyorlash.
70. Dag'al jundan gilam, ko'rpa va yostiqlar tayyorlash.
71. Artemiya sistalarini yig'ish va topshirish.
72. Yengil avtotransport vositasida yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish (litsenziya varaqasi bo'lganda).



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azimjonovich, R. N., Maxmudovich, U. B., & Abdusamatovich, J. J. (2024). Mahallabay ishlash tizimi orqali xizmatlar sohasini rivojlantrirish asosida ishsizlikni kamaytirish va aholi daromadlarini oshirish. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 7(3), 207-213.
2. Azimjonovich, R. N., Abdusamatovich, J. J., & Maxmudovich, U. B. (2024). Maishiy xizmat ko 'rsatish sohaslariga berilgan imtiyozlar jozibadorligini nazariy asoslash. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 7(3), 214-221.
3. O'G'Li, H. S. R., Maxmudovich, U. B., & Abdusamatovich, J. J. (2024). OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 158-165.
4. Salamov, I., Javmanov, J., Ummatov, B., & Bekpolatov, S. (2024). Raqamli iqtisodiyotning o 'rni va joriy etishdagi imkoniyatlari. *Green Economy and Development*, 2(1), 664250.
5. Uralov, B., Javmanov, J., Holmirzayev, S., & Tursinaliyev, A. (2024). Soliq Ma'murchiligida Raqamli Iqtisodiyotning Ahamiyati Va Uning Ilmiy-nazariy Asoslari Tahlili. *Green Economy and Development*, 2(1), 664312.
6. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). Sanoat 4.0 konsepsiyasi va unga ta'sir etuvchi risklar. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
7. Javmanov, J., Homidov, A., Asomiddinov, H., & Boltayev, D. (2024). Klasterlarni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o 'rni. *Green Economy and Development*, 2(1), 664352.
8. Pardayeva, O., & Javmanov, J. (2024). Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish o 'zini o 'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solish shakli sifatida. *Green Economy and Development*, 2(1), 664246.
9. Javmanov, J., & Abduraxmonov, O. (2024). Paxtachilik Klasterlarida Ishlab Chiqarishga Ta'sir Etuvchi Omillarning Tahlili. *Green Economy and Development*, 2(1), 664317.
10. Javmanov, J., & Jo'rayev, S. (2024). Aholini o 'zo 'zini bandlikka jalb qilish orqali ishsizlik darajasini pasaytirish. *Green Economy and Development*, 2(1), 664308.
11. Javmanov, J., Radjabov, N., Uralov, B., & Fayzullayev, U. (2024). Prospects for Leaving the Population Out of Poverty. *Green Economy and Development*, 2(1), 664300.
12. Очиллова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ



СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 379-386.

13. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 232-239.

14. Abdusamatovich, J. J., Makhmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O'g'li, F. U. X. (2024). O'ZBEKISTONDA INNOVATION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 222-231.

15. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. *PEDAGOG*, 6(4), 568-574.

16. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. *Pedagog*, 6(11), 237-246.

17. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. (2024). Налогообложение индивидуальных предпринимателей как форма государственного регулирования самозанятости. *So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 7(1), 369-378.

18. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. *PEDAGOG*, 6(11), 247-254.

19. O'G'li, A. J. F., Abdusamatovich, J. J., Makhmudovich, U. B., & Baxtiyorovna, N. G. (2024). KAMBAG 'ALLIKNI BARTARAF ETISHDA "MAHALLABAY" ISHLASH TIZIMI SAMARADORLIGI TAHLILI. *World of Science*, 7(2), 114-125.

20. Жавманов, Ж. А. (2023). Совершенствование определения критериев бедности. *Journal of multidisciplinary bulletin*, 6(5), 306-318.

21. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 6(5), 193-203.

22. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. *JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*, 6(5), 26-38.

23. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. (2024). Состояние развития цифровой экономики в Узбекистане. *SO 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 7(1), 387-395.

24. Kozimbek G'anijon o'g, M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA UNDAN



MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 6(5), 1-11.

25. Erkin o'g, D. S. M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALIKNI BARTARAF ETISH BO'YICHA ERISHILGAN NATIJALAR. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 6(5), 12-19.

26. Abdusalomov, F., Maxammadaxliyev, M., & Abdusamatovich, J. J. (2025). O 'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA ELEKTRON HUKUMAT. *WORLD OF SCIENCE*, 8(2), 191-193.

27. o'g'li, U. A. N., Ismoil G'ayrat o'g, X., Jahongir O'roljon o'g, Q., & Abdusamatovich, J. J. (2025). INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI HIMOYA QILISH INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 3(2), 234-242.

28. Ahror o'g'li, X. U., Islom o'g'li, I. S., Muzaffarovich, S. J., & Abdusamatovich, J. J. (2025). O 'ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI TAKOMILLASHTIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 3(2), 243-253.